

## OLIIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING INNOVATSION BOSHQARUVGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Xakimova Muhabbat Fayziyevna*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, p.f.d*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Muallif ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonlarining oliy ta'lim rivojlanish istiqbollariiga bevosita ta'sirini asoslab beradi, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasining innovatsion yondashuvdagi tarkibiy qismlari yoritiladi.

Maqolada talabalarining innovatsion boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar - qaror qabul qilish qobiliyati, kommunikativ ko'nikmalar, moslashuvchanlik va kreativlik kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni boshqarishning vaziyatli yondashuv nuqtai nazaridan ikki asosiy jihati – ta'lim siyosatidagi innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish faoliyati - alohida tahlil etiladi. Xalqaro tajribalar asosida milliy va xalqaro kvalifikatsiya ramkalarini uyg'unlashtirish zarurati ta'kidlanadi. Maqola yakunida rahbarlarning kasbiy kompetensiyalari orqali sog'lom va ijodiy muhit yaratish imkoniyatlari bo'yicha xulosalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion boshqaruv, kompetensiya, oliy ta'lim, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media savodxonlik, ta'lim sifati, malakali kadrlar, vaziyatli yondashuv, kvalifikatsiya ramkasi, kreativlik, boshqaruv faoliyati.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning istiqbolini belgilash hamda muvaffaqiyat cho'qqisini zabt etish uchun ulkan islohotlar va tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir Uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor shakllantirilayotganini endi jahon hamjamiyati ham guvohi bo'lib turibdi. Zero, “Yangi O'zbekiston – maktab



ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya negizida ta'lim va fan sohasida jiddiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda taraqqiyot rivojlanish tendentsiyalari zamon bilan hamnafas odimlayotgan, jamiyat-fuqaro va davlatni modernizatsiya qilish uchun zarur islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga raqobatbardosh bo'la olishini anglashdan kelib chiqib, yangi O'zbekiston uchun yangi siyosat va mamlakat taraqqiyoti uchun uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish zarurligi qayd etildi. Yangi O'zbekiston – insonning rivojlanishi va iste'dodi qadrlanadigan mamlakat ekanligi e'tirof etildi.

Raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida oliy ta'limning kelajagi va rivojlanish istiqbollari raqamlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Bu esa, o'z o'rnida jamiyatda ilm-fan va ta'limga raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi munosabatlar shakllanishiga asos bo'layapti.

Bugungi kunda ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, texnologiya va kadrlar zamonaviy demokratik jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili ekaniga hech kim shubha qilmaydi. Mamlakat taraqqiyotini zamon talablariga mos ravishda ilm-fansiz tasavvur etish qiyin. Prezidentimiz tomonidan ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'zaro integratsiya, ilm – fan sohasini innovatsion rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bu boradagi ishlar izchil va tizimli tarzda davom etmoqda. Ta'lim tizimi ham O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining tizim osti elementi sanaladi. Ta'lim tizimi va uning mohiyatidan kelib chiqqan holda, kadrlarni boshqarishning yangi tizimini shakllantirish hamda uni amalga oshirish demokratik jamiyat qurilishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda ijtimoiy talablarning o'zgarib borishi boshqaruv faoliyatida rahbarning o'ziga xos tipi – innovatsion menejer tomonidan amalga oshirilishi lozimligini umumiy holda anglab yetilishini shakllantiradi. Ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati o'z mazmuniga ko'ra boshqaruv - ta'lim faoliyati bo'lib hisoblanadi, ya'ni, ta'lim muassasasining rahbari boshqaruvni amalga oshira turib, boshqaruv funktsiyalarini bajaradi, lekin uning faoliyati real pedagogik mazmun bilan to'ldirilgandagina mazmunga ega bo'ladi. Ta'limda boshqarishning eng maqsadga muvofiq usullarini tanlab olish muammosini hal qilish bilan tashkiliy boshqaruv va inson resurslarini yagona tizimga birlashtiruvchi boshqaruv tizimi



komponenti dolzarb bo‘lib bormoqda. Mana shunday komponent orqali boshqaruv faoliyati rivojlanadi.

Oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy boshqarishning samarali yo‘llarini joriy etish ijodiy, intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, ta‘lim tizimining o‘quv jarayoniga innovatsion metodlarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Bugungi globallashuv sharoitida innovatsion boshqaruvga ega talabalar umumiy kompetensiyalarga ham ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘z o‘rnida umumiy kompetensiyalar ta‘limda boshqaruv, boshqaruvda huquqiy masalalar, boshqaruvda mas‘uliyat va moslashuvchanlik, boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, inklyuziv ta‘limni joriy etish masalalari, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy ta‘lim rivojlanishiga e‘tibor qaratishlari lozim.

Hozirgi kunga kelib, oliy ta‘limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasi, oliy ta‘lim muassasalarini axborot kommunikatsiya manbalari bilan ta‘minlash asosida ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni joriy etish, axborot kommunikatsion manbalaridan samarali foydalanishda axloqiy qoidalarning ahamiyatini va ommaviy axborot vositalaridagi media savodxonlikni tushunish va o‘zida mujassam etgan holda ularni talabalarda rivojlantirish yo‘llarini bilishdan tashkil topgan. Bu turdagi kompetentlikka innovatsion yondashuv quyidagilardan iborat:

1. Ta‘limni axborotlashtirish sohasidagi meyoriy-huquqiy asoslarni bilishi va tahlil eta olishi va hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

2. Ta‘lim jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan axborot resurslarining ahamiyatini anglab yetish, oliy ta‘lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarishga oid dasturiy mahsullardan o‘z o‘rnida foydalana olish.

3. Oliy ta‘limda boshqarishning axborot tizimlari va o‘rgatuvchi tizimlaridan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish hamda talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish quvvatini oshirishdan iborat.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish



kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi” degan edilar.

Ta’kidlash kerakki, ta’lim jarayonini raqamlashtirish faqat axborot texnologiyalardan foydalanish degani emas. Internet, mobil va turli platformalar orqali onlayn tarzda amalga oshiriladigan ta’limda talaba va pedagogning moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, ta’limning ijodiy xususiyatini oshirishga qaratilgan yangi ta’lim modelini yaratish kabi muhim vazifalar kiradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili bu - talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o‘z o‘rnida va tezkorlik bilan to‘g‘ri qo‘llay bilish;
- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;
- ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- faoliyat doirasida boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o‘rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko‘nikmalar;
- shaxslararo munosabatlarda axloqiy va madaniyat sifatlariga ega bo‘lishi ma’naviy qadriyat va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi;
- iqtisodiyotning insonparvarlashish jarayonining ro‘y berishi, ya’ni inson iqtisodiy rivojlanish uchun emas, balki iqtisodiy taraqqiyot inson uchun xizmat qilishi;
- raqamli ta’lim muhitida foydalaniladigan texnologiyalar, xususan, o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini o‘quv jarayonida qo‘llay oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga ijtimoiy buyurtmaning ortishi;

• talaba o‘zining kreativ imkoniyatlarini namoyon qilishi va shu bilan birgalikda innovatsion metodlarni egallashga intilishidir.

Bugungi kunda talabalarning innovatsion boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv bilimlarini, amaliy ko‘nikmalarini, ilmiy-metodik usullar, ularning ta’lim sifati samaradorligini boshqarishda innovatsion faoliyatlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e’tibor talabalarning intellektual salohiyati va ta’limda boshqaruv kompetentligini oshirish muammolariga qaratilgan bo‘lib, ularda innovatsion boshqaruv kompetensiyasi bilan bog‘liq masalalar yetarli darajada ochib berilmagan. Bu esa, oliy ta’lim muassasasi talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash va ularni samarali boshqarish salohiyatini oshirishda turli yondashuvlar asosida boshqarishni taqozo etadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimini globallashtirish sharoitlariga moslashtirish, ta’limning ko‘p darajali interfaol mexanizmining integrativ tashkiliy funktsiyasini kengaytirish orqali interfaol imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida talabalarni innovatsion boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish - ijtimoiy va boshqaruvdagi innovatsiyalarning vaziyatli yondashuvdagi o‘zaro bog‘langan tushunchalar tizimi hisoblanib, ushbu xulosa quyidagilarni asoslaydi:

Birinchidan, ta’lim siyosatida innovatsion jarayonlarni, innovatsion mahsulotlarni o‘quv muassasasining hayot faoliyatiga daxldor bo‘lgan boshqa yangiliklar ko‘rinishida ham yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish jarayonlarini namoyon qiladi. Ta’limdagi innovatsion jarayonlarning maqsadi – bu ta’lim tizimidagi mavjud an’anaviy elementlar yoki ularning o‘zaro aloqalarini o‘zgartirish va tizimning sifat jihatidan yangi holatiga erishishdir. Jarayonlarning tezligi innovatsion boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi resurslar majmuasini namoyon qiluvchi oliy ta’lim muassasasining mavjud innovatsion potentsiali bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, innovatsion jarayonlarni boshqarish faoliyati jamoaning tashkiliy tuzilmalari va sifat xususiyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish boshqarishning funktsiyalarini amalga oshirish usullari majmuasini aks ettiradi. Vaziyatli yondashuvlar kontekstida boshqaruv faoliyatini tahlil qilish uning innovatsion resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishga mazkur omilning ta’sir ko‘rsatishiga, bilish-qayta o‘zgartirish faoliyati hamda uning selektsiyasi



bo'yicha yangi konstruktiv texnologiyalarning, usullar va vositalarning boshqaruv tizimida ta'minlashga, innovatsion muhitni yaratishda kadrlarni innovatsion salohiyatini oshirishga imkon yaratadi.

Ta'lim sohasi muttasil yangilanish, ilg'or va innovatsion g'oyalar bilan uyg'un taraqqiy etishni talab qiladigan soha sanaladi. Sababi, aynan ushbu sohaga jamiyat va shaxs taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutadigan, kelajak bunyodkorlari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash mas'uliyati yuklangan. Bu esa, milliy standartlari talablarini xalqaro ta'lim standartlari tasniflagichiga muvofiqlashtirish, milliy malaka talablarini bosqichma-bosqich xalqaro analoglarga moslashtirish vazifasini keltirib chiqaradi. Shu asosda Xalqaro kvalifikatsiya ramkalariga uyg'unlashgan milliy kvalifikatsiya ramkalarini joriy etish, ta'lim standartlarini "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi"ga uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'limning yangi tizimi yaratilayotgan, ta'lim dasturlarining yangi strukturasi ishlab chiqilayotgan bir davrda rahbarlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadigan aniq mexanizmlarni joriy etish lozim bo'ladi. Jumladan; xorijiy tajriba, shuningdek, mahalliy shart-sharoitlar va milliy mentalitetni inobatga olgan holda boshqaruv kadrlarida ish beruvchilar uchun muhim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini shakllantirish, ularning dominant xususiyatlarini aniq belgilash; oliy ta'lim tizimida mavjud kompetensiyalarning ayni paytda eskirgan va samara bermaydigan qismini aniqlash; boshqaruv kadrlarida kasbiy va madaniy ko'nikmalarni shakllantirish omillari, uning integrallashgan metodik ta'minoti, umumkasbiy, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalar tarkibiga aniqlik kiritish; rahbarlarda kreativlik xislatlarini shakllantiruvchi uslublarni amaliyotga keng tatbiq etish bugungi kunning talabidir.

Xulosa qilib aytganda, rahbarlarning innovatsion boshqaruv faoliyatida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishda aynan kasbiy kompetensiyalar orqali hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini kreativlik, tezlik, moslashuvchanlik, tizimlilik bilan to'ldirish mumkin. Umuman olganda, kasbiy faoliyat sohasida ham namoyon bo'ladigan xulq-atvorning barqaror misollar majmuasi chuqur determinatsiyaga ega bo'lib, uning ildizlarini o'z ichiga boshqaruv sub'ektining rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni ham, uning mutaxassis sifatidagi shakllanishini ham oladigan individual tarixida topish mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**



1. Abduraxmanov K.X. i dr. Sovremennyyi menedjment i reformirovanie sistemy obrazovaniya v Uzbekistane. – T., 2005.
2. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta’lim, 2010. - №2. – 112-117 b.
3. Teshaboyev T. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat // Jamiyat va boshqaruv, 2009. - №2. – B.28.
4. Xakimova M., Turabekov F. Ta’lim iqtisodiyoti (o’quv qo’llanma). T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. -216 b.
5. H Muhabbat, K Mukhiddin, H Jalil, K Dustnazar, T Farxod. The digital frontier: AI-enabled transformations in higher education management. Indonesian Journal of Educational Research and Technology 4 (1), 71-88.



---

**Research Science and  
Innovation House**

